

# **“Global Atomic Quiz” xalqaro ma’rifat loyihasini o‘tkazish qoidalari**

## **1. Umumiy qoidalar**

Mazkur qoidalar “Global Atomic Quiz” xalqaro ma’rifat loyihasini (keyingi o‘rinlarda Loyiha deb yuritiladi) o‘tkazish tartibi va muddatlarini, shu jumladan Loyihada ishtirok etish qoidalari va Loyihaning yakuniy natijalarini sarhisob qilish tartibini belgilaydi.

Loyihaning maqsadi yadro fizikasi asoslari haqidagi bilimlarni ommalashtirish, xalqaro auditoriyaga atom texnologiyalari sohasidagi so‘nggi jahon yutuqlari va ularni tinch maqsadlarda qo‘llashning afzalliklari haqida bilim berishdan iborat.

Loyihaning maqsadli auditoriyasi (keyingi o‘rinlarda Ishtirokchilar deb yuritiladi) keng xalqaro auditoriya, aynan esa dunyoning istalgan mamlakatidan bo‘lgan, mazkur qoidalarda ko‘zda tutilgan talablarga javob beradigan va shartlarga rioya qiluvchi shaxslardan tashkil topgan.

Loyihada ishtirok etishda Ishtirokchilar mazkur qoidalar (keyingi o‘rinlarda Qoidalar deb yuritiladi) bilan to‘liq kelishadilar.

Loyiha mazkur Qoidalar bilan tartibga solinadi, notijorat ma’rifat tadbiri hisoblanadi, reklamali rag‘batlantiruvchi tadbir emas va lotereya hisoblanmaydi.

### **Umumiy ma’lumot**

1.1. Nomi: “Global Atomic Quiz” xalqaro ma’rifat loyihasi.

1.2. Loyihani amalga oshirish hududi - dunyoning barcha mamlakatlari cheklovlarisiz.

1.3. Loyiha tashkilotchisi: Atom energiyasiga oid axborot markazlarini rivojlantirish bo‘yicha “Kelajak energiyasi” Muxtor notijorat tashkiloti (АНО “Энергия Будущего”), TIN 7726385219, KPP 772601001, yuridik manzili: 117105, Moskva sh., Varshavskoye shossesi, 3-uy (keyingi o‘rinlarda Tashkilotchi deb yuritiladi)).

1.4. Loyihani o‘tkazish muddatlari:

1.4.1. Loyihani o‘tkazishning umumiy muddati: 2023-yil 10-noyabrdan g‘oliblarga Sovrinlar topshirilgunga qadar, lekin 2023-yil 31-dekabrdan kechikmagan holda. Loyihani o‘tkazishning umumiy muddati Loyiha Ishtirokchilari Loyihada ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshiradigan davrni; Tashkilotchiga Loyiha g‘oliblarini aniqlash uchun talab qilinadigan vaqtni; shuningdek, Tashkilotchiga Loyiha natijalari bo‘yicha G‘oliblarga sovrinlarni topshirish uchun talab qilinadigan vaqtni o‘z ichiga oladi.

1.4.2. Loyihaning asosiy qismini o‘tkazish davri – yadro fizikasi asoslari va atom sanoatining jahon yutuqlariga oid bilimlar bo‘yicha ilmiy-ommabop viktorina (keyingi o‘rinlarda Viktorina deb yuritiladi) topshiriqlarini bajarish vaqti – 2023-yil 10-noyabr soat 00:00-u 00:00 daqiqa 00:00 soniyadan boshlab 2023-yil 10-noyabr soat 23-u 59 daqiqa 29 soniyagacha (Ishtirokchining mahalliy kelish vaqti bo‘yicha).

1.4.3. Yakuniy natijalarni sarhisob qilish va Loyiha g‘oliblarini e’lon qilish davri – 2023-yil 17-noyabrgacha.

1.4.4. Qoidalariga muvofiq Loyihada ishtirok etish natijalari bo‘yicha g‘oliblarga Sovrinlarni topshirish davri 2023-yil 30-noyabrdan 2023-yil 31-dekabrgacha.

1.4.5. Sovrinlarni berishning aniq sanalari keyinroq aniqlanadi, bu haqda Loyiha ishtirokchilari Tashkilotchi tomonidan alohida xabardor qilinadi.

1.4.6. 1.4.3.–1.4.5. bandlarda ko‘rsatilgan shartlar Loyiha Tashkilotchisining xohishiga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin.

1.4.7. Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra g‘oliblarga sovrinlarni topshirishning imkoni bo‘lmasa (shu jumladan, yengilmas kuch holatlari, tabiiy ofatlar, xalqaro pochta jo‘natmalarini jo‘natishdagi cheklovlar va taqiqlar natijalari bilan cheklanmagan holda), Loyiha Ishtirokchilari bu haqda qo‘shimcha ravishda xabardor

qilinadilar. Bunday holatda Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra tanlov sovrinlarini topshirishni bekor qilishga yoki ularni topshirish muddatini o‘zgartirishga haqli.

1.5. Loyiha Ishtirokchilarini xabardor qilish usullari:

Loyiha Ishtirokchilari Loyihani o‘tkazish Qoidalarini, muddatlari va natijalari haqida Internet tarmog‘ida: [quiz.atomforyou.com](http://quiz.atomforyou.com) saytida, jumladan uning barcha tildagi versiyalari (keyingi o‘rinlarda Sayt deb yuritiladi) orqali xabardor qilinadi.

1.6. Ishtirokchilar va/yoki ularning ota-onalari/qonuniy vakillari bilan dastlabki muloqot, shu jumladan ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish faqat Loyihaning: [info@atomforyou.com](mailto:info@atomforyou.com) elektron pochta manzili orqali amalga oshiriladi.

## **2. Ishtirokchilar va Loyihada ishtirok etish shartlari**

2.1. Loyiha saytida ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirgan va shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozi bo‘lgan dunyoning istalgan mamlakati jismoniy shaxslari Loyihaning ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Qolgan barcha ishtirokchilar Loyihada ro‘yxatdan o‘tmasdan cheklovlersiz ishtirok etishlari mumkin, ammo ular tanlov o‘tkazish doirasida ko‘rib chiqilmaydilar.

2.2. Amaldagi qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, ushbu shartlarda nazarda tutilgan harakatlarni mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan Loyihaning voyaga etmagan ishtirokchilari, ularni o‘z ota-onalari (yoki qonuniy vakillari) orqali va/yoki ularning yordami bilan amalga oshiradilar.

2.2.1. Loyihaning voyaga etmagan ishtirokchilari o‘z ota-onalarini (qonuniy vakillarini) mazkur Qoidalar bilan tanishtirish va ota-onalarning (qonuniy vakillarining), shu jumladan Loyihada ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan roziligini olish majburiyatini mustaqil ravishda o‘z zimmalariga oladilar.

2.3. Quyidagilarga Loyihaning tanlov qismida ishtirok etish uchun ruxsat berilmaydi:

- Tashkilotchining xodimlari, shuningdek Tashkilotchining, hamda ularning oila a‘zolarini manfaatlarini ifodalovchi shaxslar;
- Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga ega bo‘lgan uchinchi shaxslarning xodimlari va vakillari, shuningdek Loyihani tashkil etish va/yoki o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar, shuningdek ularning oila a‘zolari;
- “Rosatom” Davlat korporatsiyasi korxonalarining xodimlari va vakillari.

2.4. Loyiha ishtirokchilari, xususan, mazkur Qoidalariga muvofiq Loyiha haqida ma’lumot olish huquqiga egadirlar.

2.5. Loyiha ishtirokchilari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Loyihani amalga oshirish vaqtida uning Qoidalariga rioya qilish;
- Loyiha Qoidalariga muvofiq Tashkilotchiga o‘zi haqida haqqoniy ma’lumotlarni taqdim etish;
- mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

## **3. Loyiha tanlovida ishtirok etish tartibi. Loyiha G‘oliblarini aniqlash.**

3.1. Loyihaning tanlov qismini amalga oshirish yakunlariga ko‘ra G‘oliblar aniqlanadi va ular Loyiha Qoidalariga muvofiq Tashkilotchidan sovrinlar (keyingi o‘rinlarda Sovrinlar deb yuritiladi) oladilar.

3.2. Loyihaning tanlov qismida ishtirok etish uchun Ishtirokchi Saytda ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirishi lozim.

3.2.1. Saytda ro‘yxatdan o‘tish talabgordan tegishli ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirish orqali o‘zi haqida quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishini talab qiladi:

- Familiyasi, Ismi;
- Tug‘ilgan sanasi;
- Elektron pochta manzili;

- Yashash mamlakati;
- Loyihada ishtirok etish va shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligi to'g'risida belgi;
- Voyaga etmagan Ishtirokchilar uchun Loyihada ishtirok etishiga ota-onasining / qonuniy vakilining roziligi olinganligi va shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga ota-onalari / qonuniy vakillarining roziligi haqida belgi.

3.2.2. Tashkilotchi ro'yxatdan o'tish shakllari lozim darajada to'ldirilmagan (to'liq kiritilmagan yoki yanglish ma'lumotlar kiritilgan) Ishtirokchilarning Loyihaning tanlov qismida ishtirok etishlarini rad etishga haqli. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng Ishtirokchi Saytda ro'yxatdan o'tish vaqtida kiritilgan elektron pochta manzilini o'zgartirish imkoniyatiga ega emas.

3.3. G'oliblarni aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

3.3.1. Ro'yxatdan o'tgan Ishtirokchilar yadro fizikasi asoslari va atom sanoatidagi jahon yutuqlari haqidagi bilimlari bo'yicha ilmiy-ommaviy Viktorina topshiriqlarini bajarishlari lozim.

3.3.1.1. Viktorina Internet tarmog'ida [quiz.atomforyou.com](http://quiz.atomforyou.com) saytida, shu jumladan barcha til versiyalarida o'tkaziladi.

3.3.1.2. Viktorina turli murakkablikdagi yadroviy mavzular bo'yicha 20 ta savoldan iborat bo'lib, Ishtirokchi tizim tomonidan taklif qilingan javoblardan to'g'ri javobni tanlash yo'li bilan javob berishi kerak.

3.3.1.3. Ishtirokchi Viktorina savollariga faqat bir marta javob berishi mumkin. Viktorinadan bir necha marta o'tgan ishtirokchilar tanlov doirasida ko'rib chiqilmaydi.

3.3.1.4. Ishtirokchi oldingi savolga javob bergach, keyingi savolga o'tishi mumkin.

3.3.1.5. Har bir Viktorina topshirig'iga javob vaqti taymer yordamida kuzatiladi. Barcha topshiriqlarni bajarish tezligi G'oliblar reytingini tuzishda Ishtirokchining yakuniy ballida hisobga olinadi.

3.3.1.6. To'g'ri javoblar soni va Viktorinadan o'tish tezligi asosida G'oliblarning avtomatik reytingi shakllantiriladi. Ishtirokchi qancha ko'p ball olgan bo'lsa, uning reytingdagi o'rni shunchalik baland bo'ladi.

3.3.2. Ishtirokchining yakuniy balli quyidagi tarkibiy qismlardan shakllantiriladi:

3.3.2.1. Har bir turkumda to'g'ri javoblar soni turlicha: "Rost yoki yolg'on?" turkumida - har bir to'g'ri javob uchun 1 ball; "Sizning versiyangiz" turkumida - har bir to'g'ri javob uchun 1 ball; "Tartib bo'yicha" turkumida - bir marta mos kelganda 1 ball, ikki marta mos kelganda 2 ball, to'rt marta mos kelganda 4 ball.

3.3.2.2. Qo'shimcha ravishda Ishtirokchining yakuniy ballini hisoblashda Viktorina topshiriqlarini bajarish tezligi hisobga olinadi. Har bir savolga javob tezligini hisobga oluvchi vaqt koeffitsienti qo'llaniladi.

3.3.2.3. Ballarning yakuniy miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, Ishtirokchilar reytingidagi o'rni shunchalik yuqori bo'ladi.

3.3.2.4. Bir nechta ishtirokchilarning ballari teng bo'lgan taqdirda, viktorinani tezroq yakunlagan Ishtirokchi eng yuqori o'rinni egallagan hisoblanadi.

3.3.3. Loyiha g'oliblarini tasdiqlash:

3.3.3.1. G'oliblarning muvozanatli geografik vakilligini ta'minlash maqsadida 2023 yil 16 noyabrgacha Tashkilotchi tomonidan belgilangan mamlakat / mintaqaviy kvotaga muvofiq finalchilar reytingi asosida 100 ta G'olibni aniqlaydi. Mamlakatga/mintaqaga kvota Tashkilotchi tomonidan Loyihani o'tkazish fakti bo'yicha ishtirokchi mamlakatlar yoki mintaqalarning umumiy tarkibiga mutanosib ravishda belgilanadi.

3.3.3.2. Tashkilotchi Ishtirokchilarning qo'yiladigan talablarga muvofiqligini va ularning ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish uchun elektron pochta orqali G'oliblar bilan bog'lanadi. Bunda Tashkilotchi G'oliblarga Loyihaning elektron pochtasiga amaldagi yashash joyi manzilini (mamlakat, shahar,

ko'cha, uy, bino, xonadon, pochta indeksi) hamda sovrinlarni olishni tashkillashtirish uchun aloqa telefon raqamini yuborish haqida talabnoma yuboradi.

3.3.3.3. Agar g'olib xabarnoma olingan kundan boshlab 4 (to'rt) kalendar kuni ichida Tashkilotchiga javob bermasa va/yoki Tashkilotchida ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan Ishtirokchi to'g'risidagi ma'lumotlarning haqiqiy ma'lumotlarga muvofiqligiga asosli shubhalar yuzaga kelsa, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, agar ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan elektron pochta manzili mos kelmasa yoki Ishtirokchi shaxsiy ma'lumotlarini buzib ko'rsatgan, soxta va/yoki boshqa bironvning familiyasi va ismi bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, G'olibning sovrini bekor qilinadi va Tashkilotchi yuqorida bayon qilingan taomilga muvofiq ravisda boshqa g'olibni tanlash huquqiga ega bo'ladi.

#### **4. Loyiha ishtirokchilariga sovg'alar**

4.1. Loyihani amalga oshirish yakunlari bo'yicha, Loyihada ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan barcha Ishtirokchilar Loyiha Tashkilotchisidan nomlari ko'rsatilgan elektron sertifikatlar oladilar. Loyihada ro'yxatdan o'tmasdan qatnashgan Ishtirokchilar nomlari ko'rsatilmagan elektron sertifikatlariga ega bo'ladilar.

4.2. Eng ko'p ball to'plagan 100 nafarga yaqin Ishtirokchilar Loyihaning tanlov qismi g'olibi bo'lishlari mumkin.

4.3. Loyihaning tanlov qismida g'olib bo'lganlar sovg'a sifatida sovg'a to'plami sifatida sovg'a oladilar. Sovg'a tarkibida mavzuga oid mahsulotlar: atom ko'rinishidagi bitta o'lchamdagi velkro qo'shimchasiga ega unisex svitshot, o'zi yopishadigan lentaga vishevka bilan tikilgan 5 ta stiker va shopping sumkasi (keyingi o'rinlarda - Sovg'a deb yuritiladi).

4.3.1. 1.4.2.-bandda ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin 30 kun ichida Tashkilotchi Ishtirokchining elektron manziliga Sovrinni olish tartibi va uni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlar ro'yxati ko'rsatilgan xat yuboradi.

4.3.2. Sovrinlarni topshirish G'olib tomonidan taqdim etilgan manzilga pochta jo'natmasi orqali va/yoki shaxsan topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tashkilotchi har bir holatda Sovrinlarni yetkazib berish usulini belgilashga haqli, bu haqda G'oliblar Sovrinni olish doirasida xabardor qilinadilar.

Pochta orqali jo'natilgan taqdirda Tashkilotchi Sovrinlarni transport kompaniyasi tomonidan yakuniy oluvchigacha yetkazib berilishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Jo'natma yo'qolgan taqdirda, Ishtirokchi Loyihada ishtirok etganligi bilan bog'liq tovon to'lashni talab qilishga haqli emas.

4.4. Tashkilotchi Sovrinni olish munosabati bilan har qanday davlat qonunchiligida ko'zda tutilgan soliq va yig'implarni to'lash uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha barcha majburiyatlarni Sovrin oluvchi o'z zimmasiga oladi.

#### **5. Yakuniy qoidalar**

5.1. Loyihani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan nizoli masalalar Rossiya Federatsiyasining moddiy va protsessual huquqiga muvofiq Tashkilotchining joylashgan joyi bo'yicha sudda hal qilinadi.

5.2. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni olish, Loyihada ishtirok etishga qaratilgan barcha harakatlarni amalga oshirish xarajatlarini Ishtirokchilar, ota-onalar va/yoki qonuniy vakillar mustaqil ravishda zimmalariga oladilar.

5.3. Oddiy qo‘lyozma shaklidagi barcha hujjatlar tushunarli va aniq bo‘lishi kerak. Skanerlangan nusxalar, fotonusxalar to‘liq o‘qiladigan bo‘lishi kerak, aks holda Tashkilotchi ularni lozim darajada emas deb hisoblashga haqli.

5.4. Agar Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra Sovrinlarni belgilangan muddatda topshirishning imkoni bo‘lmasa, Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra yetkazib berish muddatini bekor qilishga yoki o‘zgartirishga haqli. Bunday holda, Ishtirokchi Loyihada ishtirok etish bilan bog‘liq tovon to‘lashni talab qilishga haqli emas.

5.5. Loyihani o‘tkazish, Loyiha doirasida har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun Tashkilotchi uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.